

**SHAXSNING MA'NAVİY-AXLOQIY RIVOJLANISHIDA OILANING O'RNI:
SHARQ FALSAFASI VA PEDAGOGIKASINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI****Hamroyev Murodullo Nemat o'g'li***Sharq Universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Yangi O'zbekiston kelajagini qurishda oilaning ahamiyatini, ayniqsa, mafkuraviy tarbiyaning muhim ijtimoiy omili sifatida tahlil qiladi. Oiladagi mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, burchga sadoqat, ezgulik va g'amxo'rlikning bolaning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'siri chuqur o'rganiladi. Maqolada Al-Forobiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi Sharq mutafakkirlarining inson tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, oilaviy munosabatlar va ayollarning oiladagi o'rni haqidagi qimmatli fikrlari tahlil qilinadi. Ular ta'kidlaganidek, oiladagi ijobiy muhit va to'g'ri tarbiya nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning barqarorligi va farovonligi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot oilaviy tarbiyaning ruhiy olamga ta'sirini va milliy qadriyatlar asosida yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash zarurligini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *Oila, ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, Sharq mutafakkirlari, Forobiy, Koshifiy, Beruniy, Ibn Sino, shaxs kamoloti, Yangi O'zbekiston.*

Аннотация: *Данная статья анализирует значение семьи в построении будущего Нового Узбекистана, особенно как важного социального фактора идеологического воспитания. Глубоко исследуется влияние любви, взаимного уважения, верности долгу, доброты и заботы в семье на духовно-нравственное развитие ребенка. В статье анализируются ценные идеи восточных мыслителей, таких как Аль-Фараби, Хусейн Ваиз Кашифи, Абу Райхан Беруни и Ибн Сина, касающиеся воспитания человека, моральных качеств, семейных отношений и роли женщин в семье. Подчеркивается, что, как они утверждали, позитивная атмосфера и правильное воспитание в семье имеют решающее значение не только для личного развития, но и для стабильности и процветания общества. Исследование обосновывает влияние семейного воспитания на психический мир и необходимость воспитания гармонично развитого молодого поколения на основе национальных ценностей.*

Ключевые слова: *Семья, духовное воспитание, нравственные ценности, восточные мыслители, Фараби, Кашифи, Беруни, Ибн Сина, совершенствование личности, Новый Узбекистан.*

Abstract: *This article analyzes the significance of the family in building the future of New Uzbekistan, particularly as a crucial social factor in ideological upbringing. It deeply*

examines the impact of love, mutual respect, loyalty to duty, kindness, and care within the family on a child's spiritual and moral development. The article analyzes the valuable insights of Eastern thinkers such as Al-Farabi, Husayn Vaiz Kashifi, Abu Rayhan Biruni, and Ibn Sina, concerning human upbringing, moral virtues, family relationships, and the role of women in the family. It highlights that, as they emphasized, a positive family environment and proper upbringing are crucial not only for personal development but also for the stability and prosperity of society. The research substantiates the influence of family upbringing on the psyche and the necessity of raising a harmoniously developed young generation based on national values.

Keywords: Family, spiritual upbringing, moral values, Eastern thinkers, Farabi, Kashifi, Biruni, Ibn Sina, personal development, New Uzbekistan.

KIRISH: Jamiyatning tayanch ustuni va hayotning abadiyligini ta'minlovchi oila, nafaqat milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni avlodlarimizga o'tkazib beruvchi madaniyat o'chog'i, balki kelajak nasllarning qanday inson bo'lib shakllanishini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Sharq falsafasida oila azaldan muqaddas Vatan sifatida qabul qilingan. Oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlik qaror topadi, bu esa o'z navbatida davlatning barqarorligi va osoyishtaligiga zamin yaratadi. Zero, oila farovonligi milliy farovonlikning asosini tashkil etadi.

Insoniy fazilatlar, jumladan, halollik, rostgo'ylik, or-nomus, uyat, mehr-u oqibat, mehnatsevarlik kabi insoniy qadriyatlar aynan oilada shakllanadi. Oila haqida so'z yuritilganda, ko'z o'ngimizda avvalo Onaning pokiza, oqila, mehr-u muruvvatli va sadoqatli siymosi gavdalanadi. Negaki, bola vujudiga milliy dunyoqarash ham ona suti bilan singadi va onaning allasi bolaning ko'ngil dunyosiga milliy ruhni olib kiradi. Shuning uchun ham oilaga e'tibor qaratish, uni ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash va qo'llab-quvvatlash bugungi kun va ertangi istiqbolimiz uchun nihoyatda muhim va dolzarbdir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyolilarining oila muqaddasligi, uning jamiyat hayotidagi o'rni, oila barqarorligini ta'minlovchi milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar, xususan, er va xotinga xos fazilatlar hamda ularning tarbiya jarayoniga ta'siri borasidagi qarashlarini ilmiy-nazariy tahlil etishdan iborat. Shuningdek, maqolada oilaviy tarbiyaning bola ruhiyatiga, hissiyotlariga ko'rsatadigan ta'siri va bu jarayonda milliy qadriyatlarning o'rni atroflicha o'rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Sharq falsafasi va ma'rifatparvarlik an'analarida oila masalasi, xususan, oilaning barqarorligini ta'minlovchi shaxslararo munosabatlar alohida o'rin tutadi. Ko'plab mutafakkirlar o'z asarlarida oilaviy

munosabatlarning jamiyat hayoti uchun ahamiyatini, oila muqaddasligini belgilovchi omillarni chuqur tahlil qilganlar.

O'z zamonasining qomusiy bilimdoni bo'lgan Beruniy: "Inson jamiyatda o'z qarindoshurug'lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o'zini, ham boshqalarni ta'minlash uchun ishlarni bajarishdir", degan xulosaga keladi. Umuman olganda, Beruniy ta'kidlaganidek, oiladagi yomon tarbiya, faqat shu oilaning o'zigagina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki atrofdagi boshqa oilalarga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining etakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud. "Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'zni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o'z hohishiga mehnat tufayli erishgan". Ibn Sino oilaviy munosabatlar maromi oiladagi tinch totuvlik, mehr-muruvvat, oila g'ururi va sha'ni ko'p jihatdan ayollarga ham bog'liq ekanligi haqida ko'p yozgan. Jumladan, "Oila xo'jaligi" asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlarga ega bo'lmoqlari lozim, deb yozadi.

Masalan, ma'lum bir manbada keltirilishicha, "Ayollarning yaxshi fazilatlari haqida"gi bo'limda ularning quyidagi xususiyatlari alohida ta'kidlangan: ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lishi, kam gapirishi, eriga bo'ysunmog'i, uni sevishi, farzandlar tug'ib, ularni halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar etib tarbiyalashi lozim. Ayolning injiq bo'lmasligi, iffati va obro'sini to'kmasligi, eriga nisbatan dimog'dorlik yoki viqor hissini namoyon qilmasligi, o'z ishlarini o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i hamda o'z xulq-atvori bilan erining qalbidagi hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi zarur. Bu kabi tavsiyalar Sharq mutafakkirlarining ayol shaxsiyatiga, uning oiladagi o'rniga nisbatan an'anaviy qarashlarini aks ettiradi.

Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlari oilaning asosini tashkil etuvchi er va xotinga xos sifat va fazilatlarning shakllangan bo'lishini, oilaviy burch va vazifalarini sadoqat bilan ado etishlarini, bir-biriga mehribon va kechirimliliklarini eng muhim qadriyat sifatida e'zozlaganlar. Ularning asarlarida oilaning muqaddasligi va jamiyat hayotidagi o'zni alohida ta'kidlanib, oila muqaddasligini ta'minlovchi milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar ko'rsatib o'tilgan.

MUHOKAMA: Bola tarbiyasida oilaning o'zni beqiyosdir. Bolaning pok va sof sadoqat, ma'naviy jihatdan yuksak bo'lib o'sishi, birinchi navbatda, oiladagi mustahkam, tinch va totuvlikka bog'liq. Chunki, oilada tarbiyalanayotgan yosh avlod ham ma'naviy jihatdan yetuk, sog'lom, mustaqil fikrli komil inson bo'lib voyaga yetadi. Bola ma'naviy-axloqiy

tarbiyasining to‘laligicha ta‘minlanishi, oila totuvligi va davomiyligi oila a‘zolarining ruhiyatiga, o‘zligini anglash darajasiga, mustaqil fikriga, dunyoqarashiga hamda chinakam insoniy fazilatlariga ega bo‘lishiga bog‘liq.

Tarbiyani insonni shakllantirish jarayonini boshqarishga qaratilgan maqsadli faoliyat sifatida qaraladi. Tarbiyaning mazmuni, yo‘nalishi, maqsadi va vazifasi kishilarning ijtimoiy munosabatlariga bog‘liq. Kishi aynan mazkur munosabatlar asosida hayotga qarash hosil qiladi, tafakkuri orqali olamni anglaydi va o‘zining unga nisbatan munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruhida tarbiya topadi.

Oilaviy tarbiya, ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyotlari va tuyg‘ulariga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi. Oila a‘zolarining turmush tarzi va ularning o‘zaro munosabatlari ko‘p hollarda farzandlarning kayfiyati, tasavvuri va hissiyotlarini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, oilalarda bolalarning milliy qadriyatlar va an‘analar asosida o‘zaro munosabatlarini tarbiyalash jarayonida ularni milliy ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar, bolalarning ijtimoiy hayotda erkin va mo‘‘tadil kun kechirishlari uchun o‘z faoliyatlarini milliy ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tashkil etishlari lozim.

XULOSA: Sharq mutafakkirlarining ma‘naviy merosini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, oila nafaqat shaxslarning, balki butun jamiyatning ma‘naviy-axloqiy kamoloti uchun asosiy tayanch hisoblanadi. Oilada shakllanadigan ayol va erkaklarga xos fazilatlar, o‘zaro hurmat, sadoqat, mas‘uliyat va kechirimlilik oilaning mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi. Bunday muhitda voyaga yetgan bola ma‘naviy jihatdan barkamol, mustaqil fikrli va jamiyat uchun foydali inson bo‘lib shakllanadi. Shaxsning o‘zini anglashi, axloqiy mezonlarga rioya qilishi va ma‘naviy dunyosining boyishida oilaviy tarbiyaning o‘rni benihoya kattadir. Milliy qadriyatlar asosida oilaviy muhitni yanada boyitish va unda ma‘naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish har bir oila va jamiyatning ustuvor vazifasi bo‘lishi lozim.

REFERENCES

1. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz... -T.: Ma‘naviyat, 2013.
2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.- T.: Sano-standart, 2017.
3. Maxmudov O. Farzandnoma. –T.: O‘qituvchi, 2018.
4. Tilavov A. Bolalarga gap uqtirish san’ati. –T.: Sano-standart, 2016.